

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSİYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKIOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIIYASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	87
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIIYAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	90
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	93
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI	96
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	98
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
THE IMPACT OF INFLATION AND EXTERNAL ECONOMIC SHOCKS ON THE NATIONAL ECONOMY.....	102
Suvonov Tolmasjon Faxritdinovich	
REWARD SYSTEMS AND EMPLOYEE PRODUCTIVITY IN HIGHER EDUCATION.....	105
Sultonboyeva Munira Bahodirovna, Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
THE DIGITAL CATALYST: HOW TECHNOLOGICAL ACCESSIBILITY DRIVES GLOBAL TOURISM	110
Freshta Qayoumi	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	112
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
ASSESSMENT AND ANALYSIS OF INVESTMENT EFFICIENCY BY REGION IN UZBEKISTAN	115
Otajonova Charoskhon Polvonkuli qizi	
УЗВЗВМОСТИ АРІ В ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СЕРВИСАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОНЛАЙН ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ	120
Садыков Азиз Миршарапович	
РАЗВИТИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	124
Валижонов Х.А.	
O'YINCHOQ ISHLAB CHIQRISHDA IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY USULLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	127
Aminov Anvarxon Kazimovich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	130
Гимранова О. Б.	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASH	134
To'rayev Jasurali To'rayevich	
РОЛЬ СИТУАЦИОННОГО ЦЕНТРА В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	137
Омонов Олим Муродуллаевич	



IMPROVEMENT OF MANAGEMENT MECHANISMS FOR INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS.....	140
To'rayev Jasurali To'rayevich	
DEVELOPMENT OF MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF SMALL INDUSTRIAL ZONES	144
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE MANAGEMENT OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT.....	147
To'rayev Jasurali To'rayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF MANAGEMENT OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.....	150
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARINING CHEGARAVIY QIYMATLARINI BELGILASH MASALALARI.....	153
Islamov Anvar Ashirqulovich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA APPLICATIONS IN UNIVERSITY MANAGEMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	156
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	160
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF PRODUCTION COMPETITIVENESS IN TEXTILE ENTERPRISES AND THE ECONOMIC MECHANISMS OF ITS FORMATION.....	164
Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich	
FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING COMMERCIAL BANK AUDITS AND ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN	166
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
PROBLEMS IN COMMERCIAL BANK AUDIT PRACTICE AND DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION	168
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT PRINCIPLES IN ECO-FRIENDLY HOTELS.....	170
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
OPPORTUNITIES FOR APPLYING NATURAL RESOURCE CONSERVATION TECHNOLOGIES IN HOTEL MANAGEMENT.....	173
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
A.Y. Mardanov	
РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА(НА ПРИМЕРЕ АО «МАХАМ-ШИРЧИҚ»)	180
Хайдарова Камола Ахинжанована	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	183
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАСЧЕТ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАТРАТ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	185
Асадова Мафтуна Саъдуллаевна	



IMPROVING THE ECONOMIC POTENTIAL OF OIL AND GAS INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: MODERN CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS	188
Bekmuhammedova Malika Iskandarbekovna	
ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	191
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	193
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВОВЛЕЧЕНИЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ	195
Ережепов Куанышбай	
KORXONALAR DAROMADLARI VA XARAJATLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	198
Aymuxammedova Amina Kakajanovna	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	201
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
KNOW YOUR CUSTOMER MECHANISMS AS A TOOL FOR ENHANCING RISK MANAGEMENT SYSTEMS IN COMMERCIAL BANKS	204
Sherzod Fayziyev	
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	208
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI	213
Islamov Anvar Ashirqulovich	



IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI

Islamov Anvar Ashirqulovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlar — AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlikni baholash bo'yicha shakllangan metodologiyalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda qo'llanilayotgan indikatorlar tizimi atroflicha tahlil qilinadi. Xalqaro tajribani qiyosiy o'rganish asosida O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuvlar aniqlanadi hamda milliy monitoring tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, xalqaro tajriba, indikatorlar tizimi, monitoring, integral indeks, makroiqtisodiy barqarorlik, hududiy rivojlanish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish.

Abstract. This article examines the methodologies developed for assessing economic security in developed countries, including the United States, Germany, Japan, South Korea, and the member states of the European Union. Particular attention is given to their distinctive features and the systems of indicators used in evaluating economic security. Based on a comparative analysis of international experience, the most appropriate approaches for Uzbekistan are identified, and practical recommendations for improving the national economic security monitoring system are proposed.

Keywords: economic security, international experience, indicator system, monitoring, composite index, macroeconomic stability, regional development, economic diversification.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологии оценки экономической безопасности, сформировавшиеся в развитых странах, включая США, Германию, Японию, Южную Корею и государства Европейского союза. Особое внимание уделяется их специфическим особенностям и применяемым системам индикаторов. На основе сравнительного анализа международного опыта определены наиболее приемлемые подходы для Узбекистана, а также разработаны практические рекомендации по совершенствованию национальной системы мониторинга экономической безопасности.

Ключевые слова: экономическая безопасность, международный опыт, система индикаторов, мониторинг, интегральный индекс, макроэкономическая стабильность, региональное развитие, диверсификация экономики.

KIRISH

Iqtisodiy xavfsizlik — bu davlatning nafaqat tashqi ta'sirlarga bardosh bera olish, balki o'z fuqarolari uchun barqaror va munosib turmush sharoitini uzoq muddatda ta'minlay olish qobiliyatidir. Mazkur tushuncha bir qarashda oddiy ko'ringani bilan, uni o'lchash, baholash va monitoring qilish murakkab ilmiy hamda amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar bu sohada o'nlab yillik tajribaga ega. Ular turli iqtisodiy sharoitlar va amaliy tajribalar asosida samarali metodologiyalar ishlab chiqqan, iqtisodiy inqirozlardan zarur xulosalar chiqarib, o'z monitoring tizimlarini doimiy ravishda yangilab borgan. Ushbu tajribalarni o'rganish milliy baholash tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli yondashuvlari va amaliy saboqlaridan samarali foydalanish mumkin.

O'zbekiston uchun bu masala ayniqsa dolzarbdir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda muhim iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda: xususiy sektor kengaytirilmoqda, xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda, ma'muriy tartib-taomillar soddalashtirilmoqda. Biroq ushbu islohotlarning samaradorligini o'lchash hamda iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniq baholash uchun zamonaviy va ishonchli metodologiya zarur. Aynan shu nuqtayi nazardan xalqaro tajriba o'rganib chiqilishi lozim bo'lgan eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

AQSh dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri sifatida iqtisodiy xavfsizlikni baholashda rivojlangan va ko'p qatlamli tizimdan foydalanadi. Ushbu tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, u birgina davlat organi tomonidan emas, balki bir nechta mustaqil idoralar, tadqiqot markazlari va xususiy tahliliy tashkilotlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Milliy xavfsizlik kengashi (NSC), Moliya vazirligi va Federal rezerv tizimi muntazam ravishda iqtisodiy xavfsizlikka oid yillik hisobotlar tayyorlaydi. Ushbu hisobotlarda quyidagi asosiy yo'nalishlar tahlil qilinadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik. Yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati, davlat qarzining YIMga nisbati, inflyatsiya darajasi va joriy hisob balansi doimiy kuzatuvda bo'ladi. Ayniqsa, davlat qarzi dinamikasini muvozanatli boshqarish AQSh iqtisodiy siyosatida muhim masalalardan biri sifatida qaraladi.

Energetik mustaqillik. AQSh 2008-yilgacha neft importiga sezilarli darajada bog'liq edi. Slanes gazi texnologiyalarining rivojlanishi ushbu holatni tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda energetik mustaqillik AQSh iqtisodiy xavfsizligi strategiyasining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi va uni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Texnologik ustunlik. Yarimo'tkazgichlar, sun'iy intellekt, kvant hisoblash va biotexnologiyalar sohasidagi yetakchilikni saqlab qolish AQSh iqtisodiy xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga ega. Global texnologik raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ushbu yo'nalishning ahamiyati yanada ortmoqda.

Moliyaviy tizim barqarorligi. 2008-yilgi global moliyaviy inqirozdan so'ng bank sektori va moliyaviy bozorlarni muntazam stress-testdan o'tkazish muhim amaliyotga aylandi. Dodd–Frank qonuni asosida tashkil etilgan Moliyaviy barqarorlik nazorat kengashi (FSOC) tizimli risklarni doimiy kuzatib boradi.

AQSh tajribasining O'zbekiston uchun eng muhim jihati baholash jarayonining ko'p tomonlama va mustaqil xususiyatga ega ekanligidir. Faqat bitta idora tomonidan amalga oshiriladigan baholash har doim ham yetarli darajada keng qamrovli bo'lmasligi mumkin. Mustaqil ekspertlar, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati vakillarining ushbu jarayonga jalb etilishi tizim ishonchligini oshiradi.

Germaniya Yevropa iqtisodiyotining yetakchi davlatlaridan biri sifatida iqtisodiy xavfsizlikni baholashda o'ziga xos model yaratgan. Ushbu modelning markazida raqobatbardosh sanoat salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish g'oyasi turadi.

Germaniya iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati "Mittelstand" deb ataladigan o'rta va kichik korxonalarning muhim roli bilan bog'liq. Avtomobilsozlik, mashinasozlik, kimyo va elektrotexnika sohalarida ixtisoslashgan minglab o'rta korxonalar Germaniyaning global bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Germaniya iqtisodiy xavfsizligi aynan ushbu korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish asosiga qurilgan.

Bundesbank va Iqtisodiy ekspertlar kengashi iqtisodiy xavfsizlikni baholashda quyidagi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratadi:

sanoat ishlab chiqarishining YIMdagi ulushi — Germaniya ushbu ko'rsatkichni kamida 20–22 foiz darajasida saqlab turishga intiladi, bu esa aksariyat rivojlangan davlatlar ko'rsatkichidan yuqori;

eksportning diversifikatsiya darajasi — bir bozor yoki bir mahsulot turiga kuchli bog'liqlik iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan baholanadi;

ilm-fanga sarflanayotgan xarajatlar — YIMning 3 foizidan ortiq qismi tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltiriladi;

mehnat unumdorligi o'sish sur'ati — ish haqining mehnat unumdorligi bilan muvofiq o'sishi raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Germaniyaning so'nggi yillardagi muhim tajribasi energetika sohasida yaqqol namoyon bo'ldi. 2022-yildagi energetika bozorida murakkab vaziyat energetika diversifikatsiyasining strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Germaniya ushbu tajriba asosida energetika siyosatini qayta ko'rib chiqib, ta'minot manbalarini diversifikatsiya qilish va barqaror energiya infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston uchun Germaniya tajribasidan olinishi mumkin bo'lgan asosiy xulosa shundan iboratki, sanoat salohiyatini saqlash va rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikning eng ishonchli kafolatlaridan biridir. Faqat xomashyo eksportiga tayanish emas, balki qayta ishlash sanoatini rivojlantirish strategik zarurat hisoblanadi.

Yaponiya tabiiy resurslarga nisbatan cheklangan, biroq texnologiya va inson kapitali bo'yicha yuqori salohiyatga ega mamlakatdir. Aynan shu xususiyat Yaponiya iqtisodiy xavfsizligi modelining asosini belgilab beradi.

Yaponiyada iqtisodiy xavfsizlikni baholash Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) tomonidan amalga oshiriladi. So'nggi yillarda Yaponiya "Iqtisodiy xavfsizlik to'g'risida"gi maxsus qonunni qabul qilib, ushbu sohadagi davlat siyosatini yanada tizimlashtirdi.

Yaponiya modelining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Texnologik zanjirlarning barqarorligi. Pandemiya davrida dori-darmon va yarimo'tkazgichlar yetkazib berishdagi uzilishlar Yaponiyada strategik tarmoqlarda mahalliy ishlab chiqarishni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Bugungi kunda "kritik texnologiyalar" ro'yxati maxsus tartibda yuritiladi va ularni himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Ta'lim va ilmiy salohiyat. Oliy ta'limga investitsiyalar kiritish, xorijiy talabalarni jalb qilish va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish Yaponiyada iqtisodiy xavfsizlikning uzoq muddatli kafolati sifatida qaraladi.

Demografik jarayonlarni boshqarish. Yaponiya aholi tarkibidagi yosh o'zgarishlariga erta duch kelgan rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, ushbu masalaga iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan yondashadi.



Mamlakat robotlashtirish va avtomatlashtirish yo'nalishlariga katta investitsiyalar yo'naltirish orqali mehnat bozori barqarorligini qo'llab-quvvatlamoda.

O'zbekiston uchun Yaponiya tajribasidan olinadigan eng muhim xulosa shundan iboratki, ta'lim va inson kapitaliga investitsiya kiritish eng uzoq muddatli hamda ishonchli iqtisodiy xavfsizlik siyosati hisoblanadi.

Janubiy Koreya tajribasi O'zbekiston uchun eng dolzarb va o'rganishga arzigulik yo'nalishlardan biridir. Buning sababi shundaki, Koreya qisqa tarixiy davr ichida sanoatlashgan, innovatsion va yuqori texnologiyali iqtisodiyotga ega mamlakatga aylandi. Bugungi kunda Samsung, Hyundai, LG kabi global brendlar ushbu mamlakatning xalqaro iqtisodiyotdagi yuqori mavqeyini ifodalaydi.

Ushbu o'zgarish puxta ishlab chiqilgan davlat siyosati, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar va iqtisodiy xavfsizlikni strategik boshqarish bilan uzviy bog'liq.

Janubiy Koreya iqtisodiy xavfsizlik modelining asosiy elementlari quyidagilardan iborat.

Eksportga yo'naltirilganlik va diversifikatsiya. Koreya iqtisodiyoti jahon bozorlariga chuqur integratsiyalashgan. Shu bilan birga, ushbu integratsiya bir mahsulot yoki bir bozorga qaramlikni anglatmaydi. Eksport tarkibi xilma-xil va muvozanatli shakllangan.

"Chaebol"lardan ko'p tarmoqli iqtisodiyotga o'tish. Dastlab bir nechta yirik korporatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot keyinchalik kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati orqali yanada barqaror tuzilmaga ega bo'ldi.

Iqtisodiy xavfsizlik indeksi. Koreya Rivojlanish instituti (KDI) tomonidan ishlab chiqilgan va muntazam yangilab boriladigan iqtisodiy xavfsizlik indeksi mamlakat iqtisodiyotidagi zaif jihatlarni erta aniqlashga xizmat qiladi.

1997-yilgi inqirozdan olingan amaliy saboqlar. Osiyo moliyaviy inqirozi Koreya iqtisodiyoti uchun muhim sinov bo'ldi. Mazkur davrdan keyin Koreya moliyaviy tizimni chuqur isloh qildi, valyuta zaxiralarini oshirdi va xorijiy qarzga bog'liqlikni kamaytirdi. Ushbu tajriba keyinchalik mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Yevropa Ittifoqi iqtisodiy xavfsizlikni baholashning o'ziga xos modelini yaratgan. Ushbu model alohida davlatlar emas, balki 27 davlatdan iborat iqtisodiy birlik darajasida ishlaydi. Bu holat uni boshqa mamlakatlar tajribasidan ajratib turuvchi qator xususiyatlar bilan tavsiflaydi.

Yevropa Ittifoqi tizimining asosini "Makroiqtisodiy nomutanosibliklar tartibi" (*Macroeconomic Imbalance Procedure — MIP*) tashkil etadi. Ushbu mexanizm orqali har yili barcha a'zo davlatlar bo'yicha quyidagi 14 ta asosiy ko'rsatkich kuzatib boriladi:

- joriy hisob balansi;
- xorijiy sof aktivlar;
- real effektiv valyuta kursi;
- eksport bozor ulushi;
- nominal mehnat xarajatlari;
- uy-joy narxlari;
- xususiy sektor kreditlarining o'sishi;
- xususiy sektor qarzi;
- davlat qarzi;
- moliyaviy sektor majburiyatlari;
- ishsizlik darajasi;
- moliyaviy sektor aktivlarining o'sishi;
- yoshlar ishsizligi;
- uzoq muddatli ishsizlik.

Agar biror davlat bo'yicha ko'rsatkichlar belgilangan chegaradan oshsa, chuqurlashtirilgan tahlil boshlanadi va zarur hollarda islohotlar bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ushbu tizim "erta ogohlantirish" mexanizmi sifatida ishlaydi.

Yevropa Ittifoqi tajribasining O'zbekiston uchun ahamiyati nafaqat metodologiyada, balki mintaqaviy hamkorlik g'oyasida ham namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy xavfsizlik monitoringini birgalikda amalga oshirish, ma'lumotlar almashish va umumiy masalalarga kollektiv yechimlar topish imkoniyati ham o'rganib chiqilishi zarur.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha modellarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular o'rtasida bir qator umumiy xususiyatlar mavjud.

Birinchidan, barcha rivojlangan davlatlar iqtisodiy xavfsizlikni faqat bitta ko'rsatkich orqali emas, balki ko'p o'lchamli va kompleks tizim orqali baholaydi.

Ikkinchidan, baholash jarayoni doimiy va muntazam amalga oshiriladi: odatda har yili, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa har chorakda monitoring olib boriladi.



Uchinchidan, iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi vaqt o'tishi bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda energetika xavfsizligi, kiberxavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi va iqlim xavfsizligi ham iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

To'rtinchidan, xalqaro hamkorlik va ma'lumotlar almashish barcha davlatlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston uchun xalqaro tajribadan foydalanish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- milliy indikatorlar tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish lozim. Bugungi kunda O'zbekistonda qo'llanilayotgan ayrim ko'rsatkichlar xalqaro metodologiyadan farq qiladi, bu esa xalqaro qiyoslash imkoniyatlarini cheklashi mumkin;

- mustaqil baholash institutlarini rivojlantirish zarur. Faqat davlat idoralari emas, balki mustaqil tadqiqot markazlari va universitetlar ham iqtisodiy xavfsizlikni baholash jarayoniga jalb etilishi lozim;

- erta ogohlantirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Yevropa Ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, asosiy ko'rsatkichlar uchun "xavf zonalarini"ni belgilash va ularning o'zgarishini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi tizim yaratish zarur;

- xalqaro ma'lumotlar bazalaridan faolroq foydalanish lozim. Jahon banki, XVF, OECD kabi xalqaro tashkilotlar ma'lumotlarini milliy statistika bilan birgalikda tahlil qilish yanada kengroq va aniqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribani o'rganish shuni yaqqol ko'rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikni baholash bir martalik jarayon emas, balki uzluksiz, tizimli va ko'p qatlamli faoliyatdir. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi o'z tarixiy tajribasi, iqtisodiy tuzilmasi hamda strategik ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy xavfsizlikni baholashning o'ziga xos modellarini shakllantirgan.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalardan to'g'ridan-to'g'ri nusxa olish emas, balki ularning eng samarali jihatlari tanlab, milliy xususiyatlar — iqtisodiy tuzilma, institutsional salohiyat, hududiy xilma-xillik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llash muhimdir.

Iqtisodiy xavfsizlikni to'g'ri va o'z vaqtida baholay oladigan davlat iqtisodiy jarayonlarga oldindan tayyorlanish, zaif jihatlarni aniqlash va resurslarni eng zarur yo'nalishlarga samarali yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa pirovardida nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki fuqarolar farovonligi va davlatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy xavfsizlik va hududiy rivojlanishga oid farmon va qarorlari.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Abalkin L.I. Ekonomicheskaya bezopasnost: ugrozy i ikh otrazheniye / L.I. Abalkin. – Moskva, 1994. – 287 s.
4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations / M.E. Porter. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
5. European Commission. European Economic Security Strategy. – Brussels: European Commission, 2023. – 24 p.
6. International Monetary Fund. World Economic Outlook 2024. – Washington, D.C.: IMF, 2023. – 214 p.
7. Korea Development Institute. Economic Security Index Methodology. – Seoul: KDI, 2022. – 96 p.
8. Ministry of Economy, Trade and Industry of Japan. Economic Security Promotion Act: Implementation Guidelines. – Tokyo: METI, 2023. – 78 p.
9. OECD. Going for Growth 2024: Structural Reform Priorities. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 312 p.
10. World Bank. World Development Report 2024. – Washington, D.C.: World Bank, 2023. – 286 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz>
12. International Monetary Fund rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://www.imf.org>
13. OECD rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://www.oecd.org>
14. World Bank rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://www.worldbank.org>
15. European Commission rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://ec.europa.eu>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100